

■ O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 35 yilligiga



HAYOTIDAN MAMNUN ODAMLAR!

■ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Qo'shrabot! Bu elat haqida balki o'qigan, eshitgandirman. Ammo, e'tibor bermaganman. To'g'ri, uzoq yillar avval rahmatli otam bilan sobiq "O'zbekiston 50 yilligi" sovxoz, degan joyiga mashhur chorvador Mardi bobo To'yumurodov xonadoniga to'yga borganmiz. Kech borib-qaytganimiz, xuddi qishlog'imizdagidek oddiy to'yni to'yaganimiz sababli, bu hudud haqida ko'rgan-bilganlarim deyarli yodimda qolmagan. Chunki, u paytlar bola edim. Faqat xotiramda qolgani o'sha to'yga borar chog'imizda otam bir inson bilan ancha gurgung qildi. Ular suhbatidan eski qadrdonlar ekanini angladim. Keyinchalik bilsam, bu kishi shu elda yuksak hurmat-e'tiborga ega Abdulloxon eshon bobo ekan.

Yana qaysi bir yili hamqishlog'imiz Boyxo'roz dalloining Toshkentda turadigan Abdug'ayumi, keyinchalik Ashur traktorichining Bayti Qo'shrabotdan uylanib, quda bo'lib borgan mehmonlardan bu manzil haqida, elning kasb-kori, hayot tarzi haqida sal-pal taassurotga ega bo'lganman. Yaqinlarga cha bu elat haqida ko'rgan-bilgan, eshitganlarim shu edi...

Kombinatga ishga kirganim bu el odamlari bilan yanada yaqinlashtirdi. Bir gal qiziq bo'lgan! U yerga xizmat yuzasidan borib, qaytar chog'da tuman markaziga tamaddi qilish uchun to'xtadik. Ayni tushlik vaqti bo'lgani uchunmi biz borgan oshxonada xo'rondalar bilan gavjum, joy taqchil ekan. Bir kishi o'vqatlanayotgan stolga borib, yoniga o'tirdik. O'zini Shuhrat, deb tanishtirgan hamstol bilan gurgungim ancha qo'r oldi. "Nurobodlik bo'lsangiz, taniysizmi-yo'qmi bilmadim, u yerda bizning Irlisboy aka degan qadrdonimiz bor. Hamma "otaxon", deb murojaat qiladi. Ismidan ko'ra, laqabini aytasangiz, hamma taniydi", dedi. U paytlar otam rahmatli tirik edi. Yangi tanish va otamni telefon orqali bog'ladim. Eski qadrdonlar uzoq gaplashdi. Mana shu kutilmagan uchrashuv sabab, hozir ham bu oila bilan bordi-keldilimiz.

Yana shunga o'xshashroq voqea bo'lgan. Qo'shrabot markaziga qadrdonlardan birining to'yiga taklif etildim. Davraboshi birinchi so'zni menga berdi. Niyatlarni aytib, joyimga o'tirishim bilan

biz o'tirgan davraga yuzlaridan nur yog'ilib turgan bir kishi kelib qo'shildi. Salomlashdik. Birozdan so'ng u menga yuzlanib: "Siz, Irlisboy akaning o'g'li bo'lasizmi?", dedi. Mendan savoliga tasdiq javobini olgandan keyin: "Otangiz bilan rahmatli dadam - Abullaxon eshon bobo xo'p qadrdon oshno edi. Dadangiz bizning uyda ko'p mehmon bo'lgan", - dedi.

Hayot qizig'ali! Kutilmagan, kutmagan paytda mana shunday holatlarga duch etadi. Bu ko'rgan-bilganlarimni aytib o'tishimdan maqsad: yaqinlarga cha men yaqindan bilmagan qo'shrabotliklar begona emas, uto qadrdon ekan.

XX asr o'rtalari... Tarixiy bir mo'jiza Zarmitan hayotini o'zgartirib yubordi. Mashhur o'zbek geolog olimi Ibrohim Hamroboev boshchiligidagi ekspeditsiya mashinasi ushbu hududda nosoz holga kelishi bilan bog'liq. Atrofni tomosha qilib turgan olimning e'tibori soy o'zanida oltin zarralariga tushadi va kaftiga bir siqim tuproq olib, diqqat bilan tikilarkan: "Bu yurtning changida ham tilla bor. Chormitan emas, Zarmitan ekan bu yer", deydi. Bu bashorat keyinchalik geologiya-qidiruv natijasida o'z isbotini topdi.

Oltin yildan ziyod davrda bu yer ulkan qurilish-bunyodkorlik maydoniga aylandi. Hududda zamonaviy konchilik va metallurgiya industriyasi - "Zarmitan" va "G'ujumsoy" konlari, 4-gidrometallurgiya zavodi va boshqa ishlab chiqarish korxonalari, Zarkentdek ko'rkam qo'rg'on barpo etildi. Janubiy kon boshqarmasi tarkibidagi bu bo'linmalar bugun yurt taraqqiyotiga munosib xizmat qilmoqda.

Zarkent qo'rg'oni - zamonaviy konchilar maskani! Qo'shrabot tumanidagi eng obod go'shalardan biri. To'rt tarafi qir-adirlar, tog'lar bilan qurshalgan keng maydonda shunday ko'rkam qo'rg'on barpo etildi. Janubiy kon boshqarmasi tarkibidagi bu bo'linmalar bugun yurt taraqqiyotiga munosib xizmat qilmoqda.

Bu qo'rg'ondagi sharoitlar aslo shahardan qolishmaydi. Did bilan barpo etilgan ko'p qavatli ujoylar, ijtimoiy soha obyektlari, savdo va xizmat ko'rsatish subyektlari, bog'-rog'lar go'yoki uzukka ko'z qo'ygandek. Bunday betakror mo'jizaning bunyodkori - Navoiy kon-metallurgiya kombinati. Ushbu gigant korxonada tomonidan so'nggi o'n yillikda ishchi-xodimlar, yosh mutaxassislar, harbiylar uchun 380 ta xonadonga mo'ljallangan 22 ta ko'p qavatli turar-joy, ikkita 100 o'rinni ishchilar yotoqxonasi, 26 o'rinni mehmonxona, 750 o'rinni uchta maishiy bino, 130 o'rinni ikkita oshxona, yong'in xavfsizligi binosi va boshqa ko'plab ijtimoiy soha obyektlari barpo etilgan va ularda yaratilgan sharoitlardan aholi juda mamnun. Qo'rg'on markazlashgan kanalizatsiya tarmog'iga ulangan. Bunday qulaylik, hattoki, ko'plab tuman markazlarida ham yo'q. Bundan dillalar shod, ko'ngillar obod.

Kombinat tomonidan qurilgan "Konchi" madaniyat uyi, "Yoshlik" sport majmuasi, ikkita mini futbol maydonchasi, stadion, akvapark va boshqa majmualarda ishchi-xodimlar, ularning oilasi, mahalliy aholi farovon hayot kechirayotgan bo'lsa, madaniyat va sport muassasalarida farzandlari iste'dod va jismoniy salohiyatini oshirmoqda.

Hududda sanoat, ishlab chiqarish rivojlanishi hisobiga yildan-yilga aholi soni, qo'rg'on hududi, ujoylar kengayib bormoqda. Buni 2000 yilda "Zarkent" MFYda ming-bir yarim nafarga yaqin aholi istiqomat qilgan bo'lsa, hozirda ular soni 4,8 ming nafarga yetganidan ham his etish mumkin. Bu, albatta, turar-joyga ehtiyojni yanada oshirayotgani turgan gap. Shu bois ham hududda qurilish avjiga chiqqan. Bir tomondan kombinat, bir tomondan xususiy qurilish subyektlari zamonaviy ujoy, turli obyektlar, xizmat ko'rsatish shoxobchalarini barpo etmoqda. Shu bilan birga, shifoxona, 26-umumta'lim maktabi, 165 o'rinni 13-sonli bolalar bog'chasi, tadbirkorlar tomonidan yo'lga qo'yilgan 3 ta xususiy bog'cha, 3 ta o'quv markazi, 2 ta tikuv sexi, 3 ta go'zallik saloni, 3 ta sun'iy qoplamali kichik stadion, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash subyekti xalq xizmatida. Yosh avlod kelajagi, ta'lim-tarbiyasi, aholi farovon-

ligini ta'minlashga katta hissa qo'shmoqda.

Hududni ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish, bog'-rog'larga aylantirishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Keyingi yillarda qo'rg'on atrofi to'liq "Yashil belbog'" bilan o'ralib, 45 gektarlik bog'zor barpo etildi. Mevali va manzarali nihollar atrofga yashillik, odamlarga xushkayfiyat bag'ishlash bilan birga, yetishtirilayotgan mevalar aholi farovonligini ta'minlamoqda. Ko'plab savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari aholiga xizmat ko'rsatmoqda. Bu, albatta, davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan insonparvarlik siyosati, "Inson qadri uchun" ezgu tamoyilining amaldagi ifodasidir.

Qurilishlar davom etib, qo'rg'onimiz yildan-yilga go'zallashib borayotir. Xudoga shukur, xalqning topish-tutishi, yashashi yaxshi. Elimizda tadbirkorlar ko'paymoqda. Aytishadiki: "Eli to'qning - ko'ngili to'q". Bugun qo'rg'onimiz tanib bo'lmas darajaga keldi. Dorilomon bir davrda yashayotganimizdan ko'ngillar yayraydi. Avvalo, bunday sharoitlarni yaratib berayotgan davlatimizga, xayrli ishlar boshida turgan kombinatimizga katta rahmat! Biz keksalar doim duodamiz, - deydi Abdulhamid hoji Qurbonov.

Yaxshi bilimziki, har bir insonning istagi ujoy. Chunki, uyi bor insonning ro'zg'orida baraka, ishida unum bo'ladi. Kombinat shonli an'anani davom ettirib, 2025 yilda navbatdagi xayrli ishga qo'l o'rdi. Zarkentda 32 xonadonga mo'ljallangan to'rt qavatli xizmat uyi ishchi-xodimlarga topshirildi. Mazkur turarjoyda 24 ta ikki xonalik, 8 ta esa uch xonalik xonadonlar bo'lib, qurilish ishlariga kombinat tomonidan qariyb 17 milliard so'mdan ortiq mablag' sarflandi.

Shu o'rinda, mazkur uyni loyihalash va qurish ishlarini kombinat to'liq o'z kuchi bilan amalga oshirganini aytib o'tish joiz. Bunda, Markaziy loyihalash byurosi, Zarafshon qurilish boshqarmasi, "Navoiy" qurilish-montaj boshqarmasi, "Sanoatelektromontaj" trest va Janubiy kon boshqarmasi mohir quruvchilarining xizmatlari tahsinga munosib.

Men ham buyoqchi sifatida ushbu uy-joy qurilishida ishtirok etib, zarkentliklar bilan tanishdim va ko'plab qadrdonlar orttirdim. Bu zamin odamlari bag'rikeng, mehmondo'st ekan. Tez-tez o'zbekona lutf bilan hol-ahvol so'rab turdi, - deydi "Sanoatelektromontaj" tresti ishchisi Lobar Usmonova.

Yana bir e'tirofqa arzigulik jihati, yangi uy sohiblari uchun qulaylik yaratish maqsadida, har bir xonadonga kombinat va kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan gaz plitasi, suv isitkich, sanuzel o'rnatib berildi. Shuningdek, yangi uy hududida bolalar maydonchasi, yo'laklar, o'rindiqlar va boshqa sharoitlar yaratilgani uy egalari juda mamnun etdi.

Oilamiz bilan o'z uyimiz bo'lishini orzu qilardik. Mana niyatimizga yetdik. Bundan oila a'zolarim, barcha yaqinlarim juda xursand. Oila a'zolarim quvonchiga qarag, - deydi Sardor Bozorov. Bu xushxabardan yaqinlarim barcha-barchasi juda mamnun. Yangi uy sohiblari kombinatga turli joylardan ishga kelgan mutaxassislar, yosh oilalar. Nasib bo'lsa, ular bilan inoq, tinch-totuv yashab, bordi-keldili bo'lamiz.

Bu hududda qurilish-bunyodkorlik ishlari keyingi bosqichda ham davom etadi. Jumladan, 160 ta xonadonga mo'ljallangan va lift bilan jihozlangan to'rtta besh qavatlik ujoy, Janubiy kon boshqarmasi ma'muriy binosi, 500 o'rinni "Konchi" madaniyat uyi yangi binosi, barcha qulayliklarga ega 400 o'rinni maishiy binoni qurish rejalashtirilgan. Bu, albatta, hamkasblarimiz va ularning oila a'zolarining zamonaviy sharoitlarda yashashi, ishlab chiqarish uchun yangidan-yangi sharoitlarni yaratishi, shubhasiz! Ayniqsa, yangi madaniyat uyi qad rostlashi Zarkentning iste'dodlarni tarbiyalaydigan eng ko'rkam maskan bo'lishiga ishonchimiz komil.

Ha, bugun o'z hayotidan mamnun odamlarning farovon hayoti, shukronaligini ko'rib, ochig'i, havasimiz keldi. Albatta, bu - mustaqilligimiz, insonparvarlik siyosati sharofati, yurtimizda kechayotgan keng ko'lami islohotlar samarasidir!

Abdumajid JO'RAYEV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.

■ 1-iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

BOLALAR OROMGOHLARI YOZGI MAVSUMGA SHAY

Yoz fasli inson salomatligini mustahkamlash, kuch-g'ayrat to'plash uchun eng muhim davr bo'lib, yil davomida mehnat qilgan ishchi-xodimlar uchun sifatli hordiq chiqarish, ularning mehnat unumdorligini oshirish, ruhiy va jismoniy tiklanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, farzandlarining yozgi ta'tilni mazmunli va sog'lom o'tkazishi esa har bir ota-ona uchun dolzarb masalalardan biridir.

Bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari aynan shu ehtiyojlarni qondiruvchi maskan hisoblanadi. Bu yerda bolalar chiniqadi, yangi do'stlar orttiradi, mustaqil hayot ko'nikmalarini shakllantiradi, sport va ijodiy mashg'ulotlar orqali o'z qiziqishlarini rivojlantiradi. Eng muhimi, ular tabiat qo'ynida sog'lom va xavfsiz muhitda dam olib, yangi o'quv yiliga tayyorlanishadi.

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg'armasi" davlat muassasasi va NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar esa bu borada muhim o'rinni tutadi.

E'tibor va g'amxo'rlik natijasida "NKMK jamg'armasi" tasarrufidagi bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari minglab bolajonlar uchun quvonch va unutilmas taassurotlar manziliga aylani bormoqda. Har doimgidek bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarini 2026-yilgi yozgi dam olish mavsumiga tayyorlash ishlari jadal sur'atlarda olib borildi.

Joriy yilda farzandlarimizni dam odirish va sog'lomlashtirish maqsadida 6 ta stasionar oromgohda 4 smenada, 3 ta kunduzgi hamda 2 ta mehnat va dam olish oromgohlarida 3-4 smenada jami 12 ming 360 nafar bolajonni qamrab olish rejalashtirilgan. Yozgi sog'lomlashtirish mavsumini

6 iyundan boshlash hamda bolalarning Navbahor tumanidagi "Sarmish", Tomdi tumanidagi "Zarafshon", Paxtachi tumanidagi "Bolajon", Kattaqo'rg'on tumanidagi "So'g'diyona", Urgut tumanidagi "Kelajak", Bo'stonliq tumanidagi "Pahlavon" BSOlari, shuningdek, 5 ta kunduzgi oromgohda dam olishlari ko'zda tutilgan.

Tayyorlarlik jarayonida asosiy e'tibor bolalar va xodimlar xavfsizligini ta'minlash, ular salomatligini muhofaza qilish hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan sanitariya-gigiyena qoidalarga qat'iy rioya etishga qaratildi. Barcha oromgohlarda obodonlashtirish, tozalash, ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Joriy ta'mirlash ishlari yakunlanmoqda.

Bolalarga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish maqsadida NKMK Tibbiy-sanitariya muassasalari mutaxassislari oromgohlarga birlashtirilmoqda. "Tez tibbiy yordam" maxsus avtomashinalari jalb qilinib, tibbiyot xodimlarining kecha-yu kunduz navbatchiligi yo'lga qo'yiladi.

Oromgohlar zarur dori-darmonlar ilon va qoraqurt chaqishiga qarshi zarbdoblar bilan ta'minlanmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari hamda ichimlik suvi sifati doimiy nazorat ostida bo'ladi. Bolalarning ota-onalari va yaqinlari bilan uchrashuvlari uchun maxsus "sog'lom-

lashtirish maydonchalari" tashkil etilgan. Jamoat tartibini saqlash, transport va aloqa xizmatlari, harakat xavfsizligi hamda favqulodda vaziyatlarining oldini olish maqsadida tegishli tashkilotlar mutaxassislari va Milliy gvardiya xodimlari jalb etiladi.

Oromgohlarda suvni zararsizlantirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan bo'lib, ichimlik suvi va suzish havzalarini ta'minlash sanitariya talablariga to'liq javob beradi. Yuvinish xonalari ta'mirlanib, foydalanishga tayyor holatga keltirilgan. Hududlarda qoraqurt va ilonlar xavfini bartaraf etish maqsadida "Jonli tabiat" jamoat birlashmasi ger-



ishlar bajarilib, kuzatuv kameralari o'rnatildi, tungi yoritish tizimlari tekshirildi. Oromgohlarda ta'lim-tarbiyaviy ishlarga alohida e'tibor qaratilib, ming nafardan ortiq malakali pedagog, tarbiyachi, to'garak rahbarlari, sport murabbiylari va suzish bo'yicha yo'riqchilar jalb etildi.

"Sarmish" va "Bolajon" bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari o'z faoliyatini 65 yilligini nishonlamoqda. Ko'plab avlod vakillari aynan shu oromgohlarda bolalikning eng yorqin halhalarini boshdan kechirganlari bilan bu oromgohlar alohida qadrdanadi.

Bugungi kunda oromgohlarda bolalar uchun yanada qulay va zamonaviy sharoitlar yaratish yo'lida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. "Zarafshon", "Pahlavon", "Sarmish" va "Bolajon" sog'lomlashtirish oromgohlarining suzish havzalari maxsus zamonaviy qoplama bilan yangilandi.

"Zarafshon" bolalar oromgohida infratuzilmani yaxshilash bo'yicha bir qator muhim ishlar bajarildi. Xususan, olti burchakli shakldagi 4 ta uy mukammal ta'mirdan chiqarildi. Oromgoh oshxonasi to'liq zamonaviy jihozlar bilan ta'minlandi. Stol va stullar yangilani, bolalar uchun yanada qulay sharoit yaratildi. "Zarafshon" va "Sarmish" oromgohlari oshxonalarining tom qismi zamonaviy sendvich panellar bilan almashirildi.

NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi ko'magida deyarli barcha bolalar sog'lomlashtirish oromgohlariga yozgi mavsum uchun zarur bo'lgan jihozlar yetkazib berildi. Bunday qo'llab-quvvatlash natijasida oromgohlarning moddiy-texnik bazasi yanada mustahkamlandi.

Amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar bolalar uchun xavfsiz, maroqli dam olish muhitini yaratishga xizmat qilishi tabiiy.

Shuningdek, oromgohlardagi "Ma'naviyat va ma'rifat xonalari" zarur adabiyotlar, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentlari asarlari, bolalar badiiy kitoblari, jurnallar hamda ko'rgazmali materiallar bilan ta'minlanmoqda. Yozgi mavsum davomida madaniy-ma'rifiy kechalar, konsert dasturlari, sport musobaqalari tashkil etiladi. "Shaxmat - aql gimnastikasi", "Mohir qo'llar", "Til o'rganamiz", "Kitobxonlar", "Kompyuter savodxonligi" kabi to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Ko'rigan chora-tadbirlar natijasida bolalarning joriy yil yozgi dam olish va sog'lomlashtirish mavsumi yuqori saviyada, xavfsiz va samarali tashkil etiladi.

Sanjar QURBONOV,
"NKMK jamg'armasi" DM
Axborot xizmati rahbari.

Iftixor

Zarkent biz uchun eng qadrlil maskan hisoblanadi. Ota-bobolarimiz shu erda tug'ilib, yashab o'tgan. Hozir biz yashayapmiz. Nasib bo'lsa, farzandlarimiz ham bu makonni qadrlashadi. Ibrat oladigan jihati – qo'rg'onimiz toza-ozoda, ko'rkam. Go'zalligi bilan shaharlardan hech qolishmaydi. Zamonaviy loyiha asosida qurilgan. Bunda, Navoiy kon-metallurgiya kombinatining hissasi katta.

TINCH-TOTUV OILALAR
ULKAN TOJ-TAXTDIR!

Hozirda qo'rg'onimizda 4,8 ming nafardan ortiq aholi yashaydi. Barchasi bir-biri bilan ahli-noq, tinch-totuv, bordi-keldili va quda-anda. E'tirofli jihati, bu yerdagi xonadonlarning barchasi farovon hayot kechirishadi. Chunki, asosiy aholi Janubiy kon boshqarmasida ishlaydi.

Bu maskanda ibratli oilalar ko'pchilikni tashkil etadi. Shulardan biri – Qurbonovlar oilasidir. Bu xonadon nafaqat ibratli, balki mahallamiz faoli, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qo'shib kelayotgan hissasi, yoshlar maslahatgo'yi, zarkentliklar to'y-tomoshasi, yaxshi-yomon kunlarida doim ko'makdosh sifatida tanilgan. Shu bois, bu oilaga doim havas qilamiz.

Yaqinda oila hayotida quvonchli xushxabar yuz berdi. O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasining 2026-yil 4-maydagi buyrug'iga asosan, "G'ujumsoy" koni yetakchi muhandisi Qurbonova Gulshod Cho'tboyevna "Ibratli oila" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Hamkasbimizning ko'plab nomzodlar orasidan tanlangani Gulshod opaning ko'p yillik samarali mehnati, fidokorona xizmatlari, ibratli yutuqlarining munosib e'tirofidir.

– Men qariyb qirq yildan, turmush o'rtog'im qirq bir yildan buyon kombinat tizimida ishlaymiz. Kasbimiz ortidan orzu-maqсадlarimizga erishib kelayapmiz. Davlatimizdan, kombinat rahbariyatidan minnatdormiz. Mehnatimizni qadrlab, hurmat-e'tibor qaratib kelmoqda. 2024-yilda "NKMK faxriysi" unvoni bilan taqdirlangan bo'lsam, bu yil yana bir e'tirofga sazovor bo'lib turibman. Bundan cheksiz xursandmiz, – deydi

quvonch bilan G.Qurbonova.

Qurbonovlar oilasi nafaqat "Zarkent" MFY, balki Qo'shrabot tumanidagi eng ibratli, namunali oilalardan biri hisoblanadi. Abdulhamid aka hamda Gulshod opa yetti nafar farzand – Gul-sara, Aziz, Temur, Ozoda, Dildora, Shohsanam, Shoxruhlarni dunyoga keltirib, munosib tarbiyalagan. Ayni paytda farzandlarining barchasi otanonasi izidan borib, ibratli oila sohiblaridir.

Bugun bu baxtli va baxtiyor oila farzandlari, 21 nafar nabiralari bosh bo'lib, umrlarining mazmunli pallasida ko'ngil xotirjamlikda farovon hayot kechirmoqda. Shuning o'zi faxrlanishga arzigulik katta saodat emasmi?! Ilohim, Zarkentimiz yanada gullab-yashnasin, Qurbonovlar oilasi kabi ibratli xonadonlar ko'paysin.

Zarkentim – eng go'zal, zarlarga boysan, Qo'shrabot – elimga sayqal, chiroysan. Alplarini dunyoga keltirgan joysan, Charog'on quyoshim, tunimda oysan.

Totuv oilalar – ulkan toj-taxting, Farzandlar kamoli – eng oliy baxting. Hech qachon so'nmasin shijoat-shahding, Ro'yobga chiqmoqda har bitta ahding.

Men ham bir izdoshing hamda izingman, Senga sadoqatli qoshu ko'zingman. Tuprog'ing to'tiyo etgan yuzingman, Bag'ringda baxtiyor Dildor qizingman!

Dildora ATABAYEVA
Zarkent qo'rg'oni.

Tibbiyot

Tibbiyot sohasidagi ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar natijalari musiqa inson salomatligida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Musiqaning odamlar ruhiy olamiga beqiyos ijobiy ta'sirini aytmay qo'ya qolaylik, bu isbot talab qilmaydigan haqiqat. Musiqa odamlar uchun salomatligini mustahkamlash vositalaridan biri ekanligini hamma ham bilavermasa kerak.

MUSIQA MIYANI QARISHDAN
HIMOYA QILADI

Muntazam ravishda musiqa tinglash yoki musiqa asboblari chalish insonlarda demensiya holati, ya'ni xotira susayishi va kognitiv funksiya – yurganda chayqalib ketish, nutq buzilishi holatlarini sekinlashtirishga yordam beradi. Shifokorlar Avstraliyalik olimlarning o'n yil davomida yetmish va undan katta yoshdagi odamlarda o'tkazgan tadqiqotlari hamda kuzatishlari natijalariga tayanib, shunday xulosaga kelishyapti. Olimlar o'n ming nafardan ortiq sog'lom odamlarga tegishli ma'lumotlarni o'rganib chiqqishgan. Deyarli har kuni musiqa tinglaydigan odamlarda demensiya rivojlanishi ehtimoli nisbatan kamroq faol tinglovchilarning qaraganda o'ttiz to'qqiz foizga kam bo'larkan. Mutaxassislar har yili ish-tirokchilarning kognitiv funksiyalarini tekshirib, doimiy ravishda musiqa tinglovchilarning xotira va kognitiv testlarda yuqori natija ko'rsatganliklarini aniqladilar. Turli cholg'u asboblari muntazam chaladigan musiqachilarda demensiya xavotirini kamaytirish o'ttiz besh foizni tashkil etdi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, miya salomatligini yaxshilash uchun musiqa asbobini chalishni o'rganish shart emas. Ko'ngilga yoqadigan kuylarni shunchaki huzur qilib tinglash ham kognitiv funksiyalarni rag'batlantirib, kayfiyatni



yaxshilaydi va miyaning turli sohalari faollashtiradi. Demak, yaxshi musiqalarni tinglashga vaqt topishimiz kerak.

Baxtigul UTEMURATOVA,
TSB Kattalar poliklinikasi vrachi.

KONCHILAR HAYOTI

MUASSIS:
"NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" AJ

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Muharrir:
Nizomiddin SADRIDDINOV



Tahririyat manzili:
210100,
Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi,
27-uy,
"NKMK" AJ boshqarmasi
Telefonlar:
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Navoiyuran" DK, "NKMK jamg'armasi" DM bo'linmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta "Konchilar hayoti" gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. "Noshir Lux" MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati bo'yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. **Bosmaxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamena ko'chasi, 270-uy.

Navbatchi: **Azamat ZARIPOV**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qog'oz bichimi A2. 11200 nusxada chop etildi. Buyurtma № 204. 2026-yil 22-may 17:00 da chop etishga topshirildi.

She'riyat



Muruntov

Qizilqum sahrosi sinoatga boy,
Allohning nazari tushgan ulug' joy,
Bu zamin dillarga baxsh etar chiroy,
Borlig'i tilloga to'la makon - bu,
"Muruntov" atalmish ulug'vor kon - bu!

Uning har toshida jilo aks etgan,
Ma'dan jilvasida quyosh raqs etgan,
Tillosin shuhrati olamga ketgan,
Javohir sandig'i, duru marjon - bu,
Asr mo'jizasi, atalmish kon - bu!

Yorqin solnomasi g'ururdir elga,
Egadir ko'p yillik u shonli yo'lga,
Yutuqlar mamnunlik baxsh etar dilga,
Dovrug'in dunyoga taratgan kon - bu,
O'zbek geologi yaratgan kon - bu!

Eng yirik, qudratli, tengsizdir azal,
Madhiga bitilgan qancha she'r, g'azal,
Joziba-jilvasi betakror, go'zal,
Mardu maydonlarga aziz makon - bu,
Mashhurlik bobida yurtimga shon - bu!

Kombinat turibdi ishning boshida,
Sadoqat, g'urur bor keksa-yoshida,
Istiqbol mujassam tamal toshida,
Jannatmakon yurtga go'zal sayqal - bu,
Mehnatga qo'yilgan ulkan haykal - bu!

Ahil jamoaki, mag'rur surar ot,
Ularki, tunu kun mehnat qilar shod,
Ulkan texnikalar hamisha qanot,
Qizilqum bag'rida ajib bo'ston - bu,
Har doim qadrlil, qadrdon kon - bu!

Zahmatkash konchilar bariga qodir,
Tog'ni talqon qilar - misli bahodir,
Sharafli kasbki, noyobu nodir,
Ixtiro yaratgan Hazrat inson - bu,
Sahroning darg'asi - buyuk xoqon - bu!

Har biri o'z ishi, kasbiga daho,
Zahmatli mehnati cheksiz, bebaho,
KITKOning tahlili munosib baho,
O'zni ko'rsatmoqqa munosib on - bu,
Har bitta konchiga ardoqli kon - bu!

Ulkan loyihalar keltirdi ko'p shon,
Katta marralarga berdi keng imkon,
Gulladi, yashnadi hur O'zbekiston,
Porloq kelajakdan bir darak kon - bu,
Orzu-maqсадlarga mushtarak kon - bu!

Shu bois, dunyoda peshqadam har on,
Mashhur "Muruntov"ga tan berdi jahon,
Yutug'i bardavom, yo'li nurafshon,
Konlarning ichinda sharafu shon - bu,
Kurrai zaminni zabt etgan kon - bu!

Osonmas maydonda mag'rur ot surmoq,
Dunyoda birinchi o'rinda turmoq,
Har doim kuchlilar safida bo'lmoq,
Elimga iftixor, g'ururli kon - bu,
Dillarga o'zgacha sururli kon - bu!

Bag'rida behisob, mo'l-kul boyluk bor,
Xalqimga ulashar faxru iftixor,
Jamoaga hamisha omad bo'lsin yor,
Ko'p yillar iftixor bo'lajak kon - bu,
Istiqboli nurli, kelajak kon - bu!

Abdumajid JO'RAYEV.

Hayitingiz muborak bo'lsin!

Qurbonlikning fazilatlarini

Muqaddas islom dini joriy etgan moliyaviy ibodatlardan biri bu qurbonlik qilishga imkonli boshqarilgan uchun Alloh rizoligini istab jonliq so'y-moqlikdir. Bu ezgu amal orqali nafaqat savob va ajrga, shu bilan birga, beva-bechora, yetim-esir va kam ta'minlanganlarni moddiy rag'batlantirib, insonlar o'rtasida bag'rikenglik va mehribonlikni mustahkamlashga erishiladi. Shu bois ham bu ezgu amalga bo'lgan rag'bat avlodlar-avlodga o'tib saqlanib kelmoqda.

Alloh taolo Qur'oni Karimda shunday marhamat qiladi:

"Allohga (qurbonlik) go'shtlari ham, qonlari ham yetmas. Lekin, u Zotga sizlardan taqvo yetar. Alloh sizlarni hidoyat qilgani sababli – U zotni ulug'lashlaringiz uchun – ularni sizlarga bo'yusundirib qo'ydi. Ezgu ish qiluvchilarga xushxabar bering!" (Haj surasi 37-oyat).

Qurbonlik qilayotgan inson bajarayotgan bu amalini xolis Alloh rizoligi uchun ado etishi, uni xo'jako'rsing, odamlarning ko'zi yoki ularga ta'ma qilish uchun amalga oshirishlari lozimligi bu oyati karimadan ayon bo'ladi.

O'z navbatida, bu ibodatni amalga oshirishning tegishli tartib va yo'l-yo'riqlari mavjud. Qurbonlik so'yishni hayit namozi ado etilgach, uch kun mobaynida, ya'ni Zulhijja oyining o'ninchi, o'n birinchi va o'n ikkinchi kunlarida amalga oshirish lozim bo'ladi. Qurbon hayiti namozi ado etilgandan so'ng qilingan qurbonlik afzal sanaladi, lekin ma'lum sabablarga ko'ra uni

shu kunda amalga oshira olmagan kishi keyingi ikki kun ichida ham bu ishni bajarsa bo'ladi. Qurbonlik qilinadigan hayvonlar qoramol, qo'tos, tuya, qo'y va echkilardan iboratdir. Qoramol ikki yoshga, tuya besh yoshga, qo'y-echki esa bir yoshga ta'min bo'lishi lozim. Agar kimningdir kambag'alligi tufayli qo'li kaltalik qilsa, olti oylik qo'y yoki bir yoshlik echkini ham qurbonlik qilsa bo'ladi. Bu hayvonlarning ko'zida ochiq – oydin g'ilayligi, jiddiy kasal, yura olmaydigan darajada cho'loq va boshida nuqsoni bo'lmasligi lozim. Agar iloji bo'lsa, quloqlari va dumiga ham shikast yetmagan hayvonni qurbonlikka tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki qurbonlik go'shtidan bahramand bo'luvchi hojatmand kishilar ular uchun taqdim etilgan bunday nuqsonlarsiz go'shtni ko'rib e'tibordan boshlari ko'kka yetishi turgan gap. Qurbonlik qilish moliyaviy jihatdan bu ishga qodir bo'lgan insonlar uchun lozimdir. Qo'y va echkini faqat bir kishi, tuya va qoramolni esa yetti kishining nomidan qurbonlik qilsa bo'ladi. Ular ulushlarini teng taqsimlab olishlari kerak. Bordiyu ulardan birortasining niyati qurbonlik qilish bo'lmasa yoki ularning ulushi yettidan kam bo'lsa, qolgan olti kishining ham qurbonligi hisobga o'tmaydi.

Qurbonlik qilgan kishi qurbonligi go'shtidan yeydi, istagan kishilariga hadya qiladi va istasa bir qismni keyin yeyish uchun olib qo'yadi. Agar oilasi katta bo'lsa, qurbonlik go'shtining hammasini oila uchun olib qolishi mustahabdir.

Bugunning gapi

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH –
HAR BIRIMIZNING BURCHIMIZ

Bugungi kunda giyohvandlik dunyo miqyosida eng xavfli ijtimoiy muammolardan biriga aylanib ulgurdi. U inson salomatligi, oila tinchligi va jamiyat barqarorligiga jiddiy tahdid soladi. Ayniqsa, yoshlar orasida giyohvand moddalarga qiziqishning ortishi xavotirli holat hisoblanadi. Shu bois, bu illatning oldini olish, aholi orasida tushuntirish ishlarini kuchaytirish muhim vazifadir.

Ana shunday profilaktik tadbirlardan biri - Navoiy harbiy prokuraturasi tomonidan Navoiy viloyati Mudofaa ishlari boshqarmasi huzuridagi Chaqiriluvchilarni harbiy-texnika mutaxassislik-

lari bo'yicha tayyorlash markazi shaxsiy tarkibi o'rtasida o'tkazildi.

Tadbir jarayonida shaxsiy tarkibga giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarning mazmun-mohiyati, ularning salbiy oqibatlari, qonunchilikda mazkur qilmishlar uchun belgilangan jazo turlari, shuningdek, bunday huquqbuzarliklar jinoyatga sabab bo'lib, og'ir jazolarga olib kelishi mumkinligi haqida atroflicha tushuntirish berildi.

Yoshlarni giyohvandlikka jalb qilish jamiyat

kelajagiga qarshi qaratilgan xavfli harakat hisoblanadi. Shu bois, har bir fuqaro qonunlarga rioya qilishi, farzandlar tarbiyasiga e'tibor qaratishi va giyohvandlikka qarshi kurashda faol bo'lishi zarur.

Sog'lom turmush tarzi va qonunga hurmat – xavfsiz va barqaror jamiyat garovidir.

Sanjarbek BAXRONOV,
Navoiy harbiy prokuraturasi katta tergovchisi, adliya podpolkovnigi.